

JAHON ADABIYOTIDA ILMIY-FANTASTIKA JANRI VA YO'NALISHLARI

Tohirova Umida Akramovna
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ilmiy-fantastika janri fantastikaning bir yo'nalishi hisoblanib, nafaqat adabiyotda balki san'atning boshqa turlarida ham, xususan kinematografiya sohasida ham juda ommalashgan. Fantastika janri xayoliy g'oyalarga asoslanadi, lekin bunday g'oyalar ilm fan doirasida aniq fanlar, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlarga asoslansa, o'z izohini topa bilsa buni bemalol ilmiy fantastika deb atay olamiz. Ilmiy fantastika – ilm fan sohasidagi izlanishlarga asoslanib, yirik kashfiyotlarning paydo bo'lishi, tabiatning yangi qonuniyatlarini ochish va hattoki jamiyatning yangi modellarini yaratish kabi yangiliklarni qamrab oladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-fantastika, texnologiya, ilm-fan, paradox, utopiya, g'oya, zamon, evolutsiya, renessans.

Аннотация. Жанр научной фантастики считается направлением художественной литературы и пользуется большой популярностью не только в литературе, но и в других видах искусства, особенно в области кинематографии. Жанр фэнтези основан на воображаемых идеях, но если такие идеи основаны на точных науках, естественных науках и социальных науках и могут найти собственное объяснение, мы можем смело назвать это научной фантастикой. Научная фантастика — основана на исследованиях в области науки, включает в себя такие новости, как появление крупных открытий, открытие новых законов природы и даже создание новых моделей общества.

Ключевые слова: фантастика, техника, наука, парадокс, утопия, идея, время, эволюция, ренессанс.

Abstract. The genre of science fiction is considered a direction of fiction and is very popular not only in literature, but also in other types of art, especially in the field of cinematography. The genre of fantasy is based on imaginary ideas, but if such ideas are based on exact sciences, natural sciences and social sciences, and can find their own explanation, we can easily call it science fiction. Science fiction - based on research in the field of science, includes news such as the emergence of major discoveries, the discovery of new laws of nature and even the creation of new models of society.

Key words: science fiction, technology, science, paradox, utopia, idea, time, evolution, renaissance.

Ilmiy-fantastika ilm-fan sohasidagi yangiliklar, yangi texnologiyalarning kashf etilishi, ularning g'aroyib imkoniyatlari, insoniyatga ijobiy va salbiy tomonlama ta'siri, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan paradokslarni o'rganadi.

Shuningdek, bu janr ilmiy tasavvurlarni uyg'otib, kelajak haqida, ilm fanning naqadar kuchli imkoniyatlari haqida o'rganishga majbur etadi.

Bu masalaga yanada kengroq qaraydigan bo'lsak, bu yo'nalish ilmiylikka asoslanadi, shuningdek, ertakona, afsonaviy g'oyalardan yiroq turgan holda, undagi voqea hodisalar ilohiy yoki qandaydir mo'jizaviy tushuntirishlarni emas, balki ilmiy isbotlangan asoslarni talab etadi.

Hozirgi kungacha ilmiy fantastikaning tematik kenligi, yondashuvlar ko'lami quyidagi mavzular bilan chegaralanib qolgan:

Kosmosga sayohat – ushbu yo'nalishda yozuvchilar quyosh tizimiga yaqin bo'lgan sayyoralar va ularga amalga oshirilgan parvozlar haqida yoki sayyoramizga yaqin bo'lgan yulduzlar haqida yozishadi. Shuningdek, bu mavzu doirasidagi asarlarda yerliklarning turli sayyoralarni egallab olishlariga doir sarguzashtlar yoritib beriladi.

Vaqt mashinasi bilan sayohat mavzusi ilmiy fantastikaning eng ommalashgan mavzulardan biri hisoblanib, bunda vaqt mashinasi ixtiro qilinadi va kelajakka yoki insoniyat tarixiga nazar solinadi.

Parallel olamlar haqida shu uslubda yaratilgan asarlarda parallel bo'lgan olamlar, sayyoralar haqida yoziladi. Mazkur olamlarning turli-tumanligi va kelib chiqish tarixini yozish fantastikada yana bir yo'nalish – tarixiy fantastikani yaratilishiga asos bo'ldi.

Evolyutsiya yoki insoniyatning mutatsiyaga uchrashi – bu mavzudagi asarlarda kelajakda insoniyatning ilohiy, mo'jizaviy qudratga ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi shuningdek, psixologik-telepatiya va prokinez hodisalari tasvirlanadi.

Keyingi yo'nalishda jamiyatni yangicha modellashtirish g'oyasi asosiy o'rin tutadi. Bu mavzuda yaratilgan asarlarning eng mashxuri Tomas Morning “Utopiya” romani hisoblanadi. Mazkur asarda turli ijtimoiy muammolarning yechimini ko'rsatish uchun ideologik jamiyat tasvirlangan. Bunday asarlar sirasiga turli jamiyat shakllari haqidagi hikoyalar, hozirgi kunda, zamonaviy jamiyatimizda, mavjud lekin Yerning izolyatsiya qilingan qismlarida: Tibetdagi vodiylarda, Tinch okeanining chekka orollarida sodir bo'ladi. Bunday adabiy asarlarni kreptio-tarixiy asarlar deb nomlanadi, bunda zamonaviy qandaydir sirli kuchlar ta'sirida rivojlanadi.¹

Ilmiy fantastika janrining bosh obrazi doim taraqqiy etuvchi, rivojlanuvchi inson timsolidir. Bu qahramon evolyutsion rivojlanuvchi, taraqqiy etuvchi hisoblanadi.

Ko'pchilik adabiyotshunoslar tahlillariga binoan ilmiy fantastika janri ilk marotaba amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po asarlarida ko'zga tashlangan. Uning ba'zi hikoyalari konseptual asosga ega, ya'ni inson faqat o'zi egallagan bilimlari yordamida tabiatning tushunarsiz, noaniq qonuniyatlarini ocha oladi. Uning bu qarashlari “Gans Haolyaning sarguzashtlari” nomli asarida o'z aksini topgan.

¹ Чернышева. Т. Научная фантастика и современное мифотворчество И.: “Наука”. 1989. – Стр. 25-27

Jahon adabiyotida birinchi professional fantast yozuvchi Jyul Vern hisoblanadi. Uning mashhur asarlari “Havo sharida besh hafta”, “Yer markaziga sayohat” kabilarning adabiyot ommasiga havola etilishi bilan ilmiy fantastika janri ham adabiyot olamida bir vaqtda paydo bo’lgan deb aytiladi. Yevropa davlatlarida Jyul Vernning asarlari juda kata shuxrat qozondi. Uning adabiy qarashlari, adabiy elementlari reallikka “jyul verncha” yondashish yoki ilm fanni hamma narsaga qodir deb qarash kabi g’oyalarini yevropalik yozuvchilar o’z asarlarida qo’llashgan.

XIX asrning 20-yillarida iste’dodli ingliz yozuvchisi Gerbert Uells ilmiy fantastika sohasida katta burilish qildi. U jyul verncha qarashlarga, ijobiy optimistik yondashuvlarga pessimistik ruh olib kirdi. Uning ijodining birinchi pallasida chop etilgan “Vaqt mashinasi”, “Doktor Maro oroli”, “Ko’rinmas odam” va “Omlar jangi” kabi asarlari ilmiy fantastika janrining rang-barangligini yanada boyitdi.²

Hozirda bu yo’nalishning ijodkorlari asarlarida nafaqat Uellsning yoki Vernning g’oyalarini balki o’zlarining boy, har xil g’oya va qarashlarini zamon ruhiga moslashtirib olib kirdilar. XX asrning boshlarida ijod qilgan yozuvchilarning asarlarida bizga parallel bo’lgan omlar haqida yoki mutantlar haqida yozish keng tarqaldi.³

1926-yilda “Amazing stories” jurnalining chiqishi ilmiy fantastika yo’nalishida tubdan burilish yasadi. Bu jurnalning muharriri Xyugo Gernsberg bo’lgan. Uzoq vaqt mobaynida aynan shu jurnal jahon fantastikasida haqiqiy bayroq bo’lib kelgan. A.Azimovning hikoyalari mazkur jurnalda birinchi bo’lib chop etilgan.⁴

1920-yillarga kelib, fantastik adabiyotda uchta asosiy yo’nalish ustunlik qildi: fantastika, ilmiy fantastika va “qo’rqinchli” adabiyot. Bu janrlar uchun maxsus jurnallar chop etila boshlandi. “Amazing stories” jurnali faqat ko’ngilochar ilmiy fantastik asarlarni chop etgan bo’lsa, AQShda yana bir mashhur jurnal “Wizard tales” paydo bo’ldi.

1930-yillarni ilmiy fantastikaning “oltin davri” deb atashadi. Bunday nomga loyiq bo’lgan asarlar “Astounding science fiction” jurnalida chop etila boshlandi. Bu jurnalning muharriri Kampbellning xizmatlari tufayli bu yo’nalish ilmiylikka asoslandi va adabiyotning g’oyaviyligiga, ilmiy bilimlarning ommaviyligiga asoslandi.

Yevropada bu janr tug’ilgan bo’lsada, biroq bu davrda biroz oqsadi. Bir nechta fantastik asarlar paydo bo’lgan bo’lsada, bular kitobxonlar orasida katta shuhrat qozonmagan. Bu davrning jahonga mashhur mualliflari J.Roni – Fransiyada, G. Evers va E.Kisha – Germaniyada, K. Chapeka – Chexoslavakiyada ijod qilishgan.

²Sterling, Bruce. Science fiction in Encyclopedia Britannica 2008

³Осипова А. Н. Фантастикаот «А» до «Я» М.:1999 – Стр.198.

⁴Vanspankeren, Kathryn. Outline of American Literature – P.: Washington, 2006. – P.60-62.

Bunday qarashlarning chegaralanganligiga qaramasdan, muharrirlar fantastik adabiyotning gullab yashnashiga xizmat qilishdi. Shu davrni ingliz adabiyotida “oltin davr” deb atasak bo’ladi. “Astounding science fiction” jurnalining muharrirlari P.Xaylayn, T.Starjon, A.E.Van Vogt, L.Del-Rey kabi mualliflarni ijod sahnasiga chiqishiga katta yordam bergan.⁵

Buyuk Britaniyada ham bunday jarayonlar davom etgan. Adabiyotda bu harakat “Yangi to’lqin” deb atalgan. Bu harakatning ilk mualliflari D.Ballrad, D.Banner Angliyada, S.Dilini, T.Disha, X.Ellison, N.Spinrad kabilar AQShda ijod qilishgan. “Yangi to’lqin”ning yanada yorqin tarafdorlari ilmiy fantastika taraqqiyotida judayam radikal o’zgarishlarni kiritishdi. Hattoki ular ilmiy fantastikani yangicha nomlashni taklif qilishdi. “Yangi to’lqin” ideologiyasi faol ravishda adabiyotning turli yo’nalishlarida zamonaviy yutuqlarini va uning eng oxirgi va avangard yo’nalishlarni o’zlashtirishdi.⁶

Bu harakatning tarafdorlari yangi tajribalar o’tkazishga, ularni asarlarida ifodalashga juda moyil edilar.Garchand, bu oqimning ijodkorlarining uslubi judayam keskin ko’rinsada, “Yangi to’lqin” inqilobiy hodisa bo’lib qolaverdi. Mazkur oqim ko’plab katta avlod yozuvchilarini mobillashishga, raqiblarning usullarini o’zlashtirishga, g’oyalar xilma-xiligini boyitishga majbur qildi.

“Yangi to’lqin”dan so’ng ingliz adabiyotida qalam tebratuvchi har bir ijodkor o’z asarida ilmiy fantastik g’oyalarni ifodalalar ekan, ijod namunasining uslubiga va adabiy tuzilishiga alohida e’tibor berdi. Garchi “Yangi to’lqin” shovqinli va inqilobiy harakat bo’lsada, 1970-yillarning boshida bu harakat o’zidan sezilarli darajada katta o’zgarishlarni qoldirdi. Shundan so’ng adabiyotshunoslarning bu janrga nisbatan munosabatlari ham o’zgardi. Endilikda jahon adabiyotida yozuvchilar ilmiylik g’oyasini xuddi maqsad deb emas, balki adabiy usul sifatida ishlatishga harakat qilishdi.⁷

1980-yillarning boshlariga kelib, ilmiy fantastikada gumanitar g’oyalar shakllana boshlandi. “Yangi to’lqin” harakatiga nisbatan yanada keng tarmoqli, xilma-xil yo’nalishga aylandi. Endilikda yozuvchilar o’z ishlarida insoniyatning ruhiy olamiga e’tibor bera boshlashdi, uning ichki olamidagi o’zgarishlarni tasvirlashga intilishdi. Bu yozuvchilar bir fikrda qat’iy turdilar: “Atrof muhitdagi istalgan transformatsiyalarga qaramasdan, insondagi yaxshi sifatlar o’zgarmaydi”. Judayam optimist ruhdagi gumanitar ilmiy fantastika yo’nalishi mustahkam harakatga aylanmadi, unga bo’lgan qiziqish tezda so’ndi.⁸

So’nggi yillarda jahon adabiyotida yangi oqimlar va yo’nalishlar kirib kelmoqda. Xususan ilmiy fantastikada “Kiber Pank” oqimi kirib keldi. Bu harakat katta ta’sirga ega bo’lib, informatsion inqilobga aylandi. Bu yo’nalishdagi yozuvchilar kont madaniyatga e’tibor berishdi. Individualistik g’oyalar va adabiy tajribalar o’tkazish ommalashdi. “Yangi to’lqin”ning bunday elementlarini “Kiber

⁵Sadoul J. Histoire de la science-fiction modern - P.,1976. – P. 23-25.

⁶Бритникова.Ф. Русский советский научно-фантастический роман - Л.:1970. – Стр. 210.

⁷Ляпунов Б.В. В мире фантастики: обзор научно-фантастической литературы.- М., 1975. - Стр. 67.

⁸Гаков Вл. Виток спирали:Зарубежная научная фантастика 60-70-х годов И.: Москва 1980. - Стр. 45-47.

pank” oqimi tarafdorlari ham davom ettirishdi. Aholining katta qismi virtual olam bilan mashg'ul bo'lganligi uchun ular asarlarida kompyuterlashgan jamiyatni tasvirlashadi. “Kiber pank”ning mashhur namoyondalari V.Gibson, B.Sterling, R.Ryukerlar hisoblanadi.⁹

G'arb adabiyotida 90-yillarning oxirida va XXI asrning boshlarida yaratilgan ilmiy fantastik asarlarda eski uslublar, shakllar va erishilgan yutuqlardan foydalanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy jahon adabiyotida ancha vaqt oldin qilingan adabiy “kashfiyotlar” modernizatsiya qilinmoqda, 20-yillarda ommalashgan uslublar qo'llanilmoqda. Misol uchun adabiyotga yangi kirib kelgan “kosmik opera” oqimi ilmiy fantastikada renessans davriga aylandi. Bu mavzu XX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, “Kosmosga sayohat” va “Planetalar urushi” kabi adabiy g'oyalarni qamrab olgan. “Kosmik opera”ning yangicha varianti hattoki muhim va biroz hazilomuz nomlandi – “barokko uslubidagi kosmoopera”. “Kosmik opera”ni yangilash uchun personajlar ustida qayta ishlandi. Mualliflarning asosiy e'tibori tushuntirish va detallarga, asardagi chalkash jumboqlar va tez-tez uchraydigan bema'ni kosmik g'oyalarga qaratildi. Biroq shunisi ma'lum bo'ldiki, keyinchalik “kosmik opera” taraqqiy etmadi, bu yo'nalish hamjahon adabiyoti ilmiy fantastikasida katta burilish yasay olmadi.

Amerika zamonaviy adabiyoti vakili Ezra Paundning “Doimiy yangilanishda bo'l” chaqirig'i ham XX asrning aks-sadosi bo'ldi. Yangi davr yozuvchilari nasrda va nazmda yozgan o'z asarlarida yangilik olib kirishga g'ayrat bilan kirishdilar. Bu asrga kelib zamonaviy psixologiyaning adabiyotga ta'siri ham kuchli bo'ldi. Ko'pchilik buyuk yozuvchilar inson idroki mavzusiga qiziqish bildirdilar. Adabiyotda “stream of consciousness”(sezgi oqimi) paydo bo'ldi. Shu oqim namoyondasi Gertrud Steyn o'z asarlarida takroriy gaplardan foydalandi. Zamonaviy uslubni amalda qo'llagan Irlandiyalik yozuvchi Jeyms Joysning “Ullisses” asari shu uslubning o'ziga xos namunasi. Joysning hissasi katta bo'ldi, undan keyin ijod qilgan yozuvchilar o'z asarlarida Joysning uslubidan foydalanishga e'tibor qaratishdi.

Ko'pchilik adabiyotshunoslar tahlillariga binoan ilmiy fantastika janri ilk marotaba amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po asarlarida ko'zga tashlangan. Uning ba'zi hikoyalari konseptual asosga ega, ya'ni inson faqat o'zi egallagan bilimlari yordamida tabiatning tushunarsiz, noaniq qonuniyatlarini ocha oladi. Uning bu qarashlari “Gans Haolyaning sarguzashtlari” nomli asarida o'z aksini topgan. Lekin E. Po hech qachon oddiygina ilmiy fantast yozuvchi bo'lishga harakat qilmagan, u fantastikaning boshqa yo'nalishlarida ham ijod qilgan.

Bugungi kunda ilmiy-fantastik janr nafaqat rivojlangan Yevropa va Amerika davlatlari uchun xos bo'lmasdan, balki oldinlari bunday mustaqil janrga ega bo'lmagan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz adabiyotlarida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu adabiyotlarda ilmiy-fantastik janrning shakllanishi fan-texnika inqilobi asrining samarasi, shu bilan birga, jahon ilmiy-fantastikasining ta'siri ostida ham rivojlanmoqda.

⁹ Erich Schneider. “Cyberpunk as a Science Fiction Genre” P.: 2008. – P. 50-57.

Bu janrning atoqli vakili Jyul Vern romanlarini “ilmiy”, boshqa bir mashhur yozuvchi Herbert Uells esa “fantastik” deb hisoblagan. Rus olimi, fan targ‘ibotchisi Yakov Perelman 1914-yili “Vaznsiz oshxonadagi nonushta” nomli hikoya e‘lon qiladi va uning janrini “ilmiy fantastika” deb belgilaydi.

Jahon adabiyotiga nazar soladigan bo‘lsak, ilmiy fantastika barcha xalqlar adabiyotida kundan kunga ommalashib, o‘z kitobxonlarini topmoqda. Biroq AQShda va Britaniyada bu jarayon ancha erta boshlangan bo‘lib, dunyoga mashhur fantastik yozuvchilar aynan ingliz adabiyotiga mansub bo‘lishgan.

Ingliz yozuvchilari orasida bu yo‘nalishda ijod qiluvchilari ko‘p bo‘lsada, ular orasida Gerbert Jorj Uells, Artur Klark va Brayan Oldisslar juda samarali va unumli ijod qilishgan.

Xullas, bu janrning badiiy imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish, yozuvchining mahorat sirlarini ochib berish adabiyotshunosligimizdagi eng dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Erich Schneider. “Cyberpunk as a Science Fiction Genre” P.: 2008.
2. Sadoul J. Histoire de la science fiction modern - P.:1976.
3. Sterling, Bruce. Science fiction in Encyclopedia Britannica 2008.
4. Tokhirova U.A “The description of image in H.Shaykhov’s works” – Студенческий вестник, (8-3)2021. 52-5
5. Vanspankeren, Kathryn. Outline of American Literature – P.: Washington, 2006.
6. Бритников А.Ф. Русский советский научно-фантастический роман - Л.:1970. Гаков Вл. Виток спирали: Зарубежная научная фантастика 60-70-х годов И.: Москва 1980.
7. Ляпунов Б.В. В мире фантастики: обзор научно-фантастической литературы - М.:1975.
8. Осипов А. Н. Фантастика от «А» до «Я» М.:1999.
9. Чернышева. Т. Научная фантастика и современное мифотворчество И.: “Наука”. 1989.